



“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI” DA POLISEMANTIK LEKSEMALARNI BERISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Boymurodova Lobar Raxim qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da polisemantik leksemalarni berishni yanada takomillashtirish masalalari yoritiladi. Polisemantik so‘zlarning lug‘at maqolasida berilish tartibi, ma’no qatlamlarini ajratish prinsiplari, izohlarning aniqligi va tizimlilik ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar: izohli lug‘at, polisemantik leksema, lug‘at maqolasi, leksikografiya, ko‘p ma’nolilik, izoh berish usullari, tilshunoslik, lug‘at tuzish tamoyillari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы дальнейшего совершенствования представления многозначных лексем в «Пояснительном словаре узбекского языка». Проведена научная оценка порядка представления многозначных слов в статье словаря, принципов разделения смысловых слоев, точности и систематичности пояснений.

Ключевые слова: пояснительный словарь, многозначная лексема, статья словаря, лексикография, полисемия, методы пояснения, лингвистика, принципы построения словаря.

Abstract. This article discusses the issues of further improving the presentation of polysemantic lexemes in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”. The order of presentation of polysemantic words in the dictionary article, the principles of separating layers of meaning, the accuracy and systematicity of explanations are scientifically evaluated.



Keywords: explanatory dictionary, polysemantic lexeme, dictionary article, lexicography, polysemy, methods of explanation, linguistics, principles of dictionary construction.

Kirish

"O'zbek tilining izohli" lug'ati milliy leksikografiyaning muhim yutuqlaridan biri bo'lib, unda til boyligi izchil, tizimli va ilmiy asosda ifodalanadi. Lug'atda so'zlarning ma'nolari, qo'llanish sohasi, uslubiy xususiyatlari hamda ularning semantik taraqqiyoti keng yoritilgan. Xususan, polisemantik leksemalar, ya'ni bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lgan so'zlarning berilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki bunday birliklar tilning semantik tizimini chuqurroq ochib beradi, uning boyligi, o'zgaruvchanligi va tarixiy rivojlanishini yaqqol namoyon etadi.

Polisemantik leksemalarni izohli lug'atda berishda muhim jihat – ma'nolarni izohlashda aniqlik, ixchamlik va tushunarlikni ta'minlashdir.

Amaldagi lug'atlarda ayrim hollarda ma'nolar izohi murakkab yoki ortiqcha tafsilotlarga boy bo'lib, foydalanuvchi uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun takomillashtirish jarayonida har bir ma'noni sodda, aniq va lo'nda tarzda ifodalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari, ma'nolarni ochib berishda misollarning o'rni ham beqiyosdir. Har bir ma'no uchun keltirilgan misollar real nutqdan olingan, zamonaviy va kontekst jihatdan aniq bo'lishi kerak. Bu esa foydalanuvchiga so'zning qanday vaziyatda va qanday ma'noda qo'llanishini tezda anglash imkonini beradi.

"O'zbek tili izohli lug'ati" (O'TIL)da ham illustrativ materiallar polisemantik leksemalarning ma'no qirralarini ochib berishda bir necha muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalarni tahlil qilish O'TILning leksikografik yutuqlarini va takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi¹.

¹ Dadaboyev H. A. " Zamonaviy O'zbek leksikografiyasi va terminologiyasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2016.— 178-b



Ma'nolarni aniq ierarxik tartibda berish, ya'ni amaldagi izohli lug'atdagidek dastlab asosiy ma'no, keyin ko'chma ma'nosini berish lozim. So'ng ko'chma ma'noli so'zlarning aniq qaysi yo'l bilan (metafora, metonimiya, sinekdoxa) hosil bo'lganini ko'rsatish shuningdek, polisemantik so'zlarning semantik ma'nosini aniq ochib berishni kuchaytirish lozim. Bunda har bir ma'noni alohida, aniq va qisqa izohlash, bir-biriga yaqin ma'nolarni aralashtirib yubormaslik kerak. Masalan, EGILMOQ 1 Egmoq fl. majh. va o'zl. n. Bo'yni egildi. Egilgan tayoqqa suyanma, seni ham egadi. Maqol.

2 ko'chma (metaf.) Biror ishga qayishmoq, bo'yni yor bermoq. Uy ishiga ham egilsang-chi!

3 Ta'zim qilmoq, boshni xam qilmoq. Egilgan boshni qilich kesmas. Maqol. Atrofdagi odamlar bari puldor... Ularga egilsang, boshingni silaydilar. Oybek, Tanlangan asarlar.

4 ko'chma (metaf.) Qulluq qilmoq, o'jarlikni qo'ymoq. Nobakor ukangdan hech xabar olyapsanmi? Qiynalib ketsa ham, egilay demaydi-ya! Y. Shamsharov, Toshqin.

Shu jumladan, lug'atda sinonim so'zlarni berishda sinonimik qatorlarni kengaytirib, ularni to'liq holda berish zarur. Ko'plab hollarda lug'atda faqat 1–2 ta sinonim bilan cheklanilgan. Holbuki, til boyligini to'liq aks ettirish uchun sinonimik qatorlarni to'liq berish, dominant sinonimni aniq ko'rsatish, sinonimlar o'rtasidagi uslubiy va emotsional farqlarni izohlash, ya'ni ijobiy va salbiy deya aniq ko'rsatib o'tish mumkin. Shuningdek, sinonimlar uchun alohida belgilash tizimini joriy etish lug'atdagidek "ayn" yoki "q." emas "sin." belgisini qo'yish mumkin. Bu lug'atdan foydalanishni yanada osonlashtiradi. Masalan,

YUZ I 1 sin. chehra, oraz, aft, bashara, turq, bet, jamol, diydor, ruxsor, uzor. Odam boshining old tomoni, old tomondan ko'rinishi; bet. Cho'ziq yuz. Qizil yuz. Kulcha yuz.

OVOZ sin. tovush, un, sado, sas, nido, sazo.



[f. tovush, shovqin, sado; mish-mish; qo'shiq] 1 Gapirish, qichqirish, kuylash, sayrash paytida o'pkadan chiqayotgan havoning urilishi bilan tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladigan tovush; sado, sas. Baland ovoz.

Paronim so'zlarni berishda qiyosiy yondashuvni joriy etish lozim. Paronimlar nutqda ko'pincha chalkashib ketgani sababli ularni juftlik yoki guruh holida berish, farqlarini maxsus izoh yoki eslatmalar orqali ko'rsatish, noto'g'ri qo'llanish holatlariga misollar keltirish samarali bo'ladi. Masalan, "bob" va "bop" so'zlari yonma-yon berilib, ularning farqi alohida ko'rsatib o'tilsa, foydalanuvchi uchun yanada tushunarli bo'ladi:

BOB (par.-BOP) eshik, darvoza 1 Kitob, asar va sh.k. ning ma'lum tugallikka ega bo'lgan har bir qismi, fasli. Romanning boblari.

BOP - loyiq, mos, muvofiq 1 To'g'ri keladigan, talab qilingandek: juda mos keladigan, munosib. O'ylab ko'rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg'a yo'q ekan. N.Safarov, Hayot maktabi.

NUFUS (par.-NUFUZ) aholi xalq ayn. aholi. Shahrimiz nufusi uch millionga yaqinlashdi. (O'TIL III jild 415-b)

NUFUZ Obro'-e'tibor; ta'sir. (O'TIL III jild 415-b)

QATIQ (par.-QATTIQ) Sutdan tomizg'i solib ivitib tayyorlangan parhez mahsulot. Yangi ivitilgan qatiq.

QATTIQ 1 fiz. Odatdagi sharoitda o'z shakli va hajmini saqlaydigan. Qattiq jism. Qattiq modda.

O'TIL II jildida "GANJINA" va "INOD" so'zlariga izoh berilgan bo'lib, ular bir ma'noli so'z sifatida ko'rsatilgan. Biroq xalq orasida aynan shu so'z asosidagi ismlar ham bor va bu lug'atda izohlanmay ketgan. O'TIL ning keyingi nashrlarida buni ham lug'atga qo'shish tavsiya etiladi:

GANJINA [- xazina, ombor] q. ganj 1 Ey, Shahrixon, jo'najon maskan, Ey, tuprog'i ganjina diyor. M.Ali. (O'TIL II jild 183-b)

2 Ganjina (ayollar ismi)



INOD [o'jarlik, bo'yin tovlash] 1 Bo'yin tovlash; o'jarlik, qiyiqlik. Hozir inodning o'rni emasligini harchand uqtirmoqchi bo'ldim ko'nmedi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar. (O'TIL II jild 520-b)

2 Inod (erkaklar ismi)

Amaldagi izohli lug'atda polisemantik leksemalar ma'lum darajada izchil berilgan bo'lsa-da, biz polisemantik leksemalarni berishni yanada takomillashtirish yo'llarini izlashimiz lozim. Ko'p ma'noli leksemalarning aniq statistikasi haqida ma'lumot yo'q. Shu o'rinda polisemantik leksemalarni taxminiy jihatdan umumiy statistikasini tavsiflashga harakat qildik. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning 6 jildidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, lug'at tarkibidagi ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar alifbo harflari kesimida notekis taqsimlangan bo'lib, ularning umumiy soni taxminan 10 352 tani tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich o'zbek tilining leksik boyligi va ayniqsa, polisemiyaning keng rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi. Umumiy hisobda taxminan 1-jildda - 1835 ta, 2-jildda - 1896 ta, 3-jildda - 1731 ta, 4-jildda - 1861 ta, 5-jildda - 1345 ta, 6-jildda - 1684 ta polisemantik leksema bor. Olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida polisemantik leksemalar juda keng tarqalgan bo'lib, ular umumiy lug'at boyligining muhim qismini tashkil etadi.

Xulosa

Kelajakda yaratiladigan izohli lug'atlarda va O'TILning qayta nashrlarida zamonaviy resurslarga tayangan holda illustrativ materiallar bazasini yangilash, turli uslublarga oid muvozanatli misollar tizimini yaratish orqali lug'atning hayotiyliigi va amaliy qimmatini yanada oshirish lozim bo'ladi. Bu choratadbirlar lug'atning ilmiy darajasini oshiradi, undan foydalanishni qulaylashtiradi va o'zbek tilining boy semantik imkoniyatlarini to'liqroq namoyon etishga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. A. " Zamonaviy O‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi" moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2016.- 178-b
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (I jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (II jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (III jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (IV jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (V jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (VI jild). Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa-ijodiy uyi”, 2022.